

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INGLIZ VA O'ZBEK FILMONIMLARINING MAZMUNYI-TEMATIK ASOSLARINI QIYOSIY TADQIQI

Umarova Dilafruz Razzakberdiyevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, mustaqil izlanuvchi. **e-mail:** umarovadd@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0000-0002-3544-9962>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek filmonimlarining mazmuniy-tematik asoslari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida 30 ta inglizcha va 30 ta o'zbekcha film nomi tanlab olinadi. Filmonimlar asosiy mazmuniy markaziga ko'ra qahramon/personaj, joy/makon, vaqt hamda aralash modellar asosida guruhlanadi. Maqolada film nomlari oddiy nomlash vositasi emas, balki film mazmuni, janri, voqea muhiti va tomoshabinga yo'naltirilgan kommunikativ ta'sirni ifodalovchi birlik sifatida talqin qilinadi. Tahlil natijasida ingliz filmonimlarida joy va vaqt komponentlari ko'proq ixcham semantik signal vazifasini bajarishi, o'zbek filmonimlarida esa qahramon, ijtimoiy muhit va milliy-madaniy tasavvurlar kuchliroq namoyon bo'lishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: filmonim, film nomi, mazmuniy-tematik asos, qahramon, joy, vaqt, aralash model, qiyosiy tahlil, ingliz filmonimlari, o'zbek filmonimlari.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СОДЕРЖАТЕЛЬНО-ТЕМАТИЧЕСКИХ ОСНОВ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ФИЛЬМОНИМОВ

Умарова Дилафруз Раззакбердиевна

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, независимый исследователь.

e-mail: umarovadd@gmail.com **ORCID:** 0000-0002-3544-9962

Аннотация.

В данной статье проводится сравнительный анализ содержательно-тематических основ английских и узбекских фильмонимов. В качестве материала исследования отобраны 30 английских и 30 узбекских названий фильмов. Фильмонимы классифицируются в зависимости от их основного смыслового центра на группы, основанные на персонаже/герое, месте/пространстве, времени, а также на смешанных моделях. В статье названия фильмов рассматриваются не только как единицы номинации кинопроизведения, но и как языковые явления, отражающие содержание фильма, его жанр, событийную среду и коммуникативное воздействие, направленное на зрителя. В результате анализа установлено, что в английских фильмонимах компоненты места и времени чаще выполняют функцию краткого семантического сигнала, тогда как в узбекских фильмонимах более ярко проявляются образ героя, социальная среда и национально-культурные представления.

Ключевые слова: фильмоним, название фильма, содержательно-тематическая основа, герой, место, время, смешанная модель, сравнительный анализ, английские фильмонимы, узбекские фильмонимы.

A COMPARATIVE STUDY OF THE SEMANTIC-THEMATIC FOUNDATIONS OF ENGLISH AND UZBEK FILMONYMS

Umarova Dilafruz Razzakberdiyevna

Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Independent Researcher. **e-mail:** umarovadd@gmail.com **ORCID:** 0000-0002-3544-9962

Abstract.

This article presents a comparative analysis of the semantic-thematic foundations of English and Uzbek filmonyms. The research material consists of 30 English and 30 Uzbek film titles. The filmonyms are classified according to their main semantic center into character/personage-based, place/space-based, time-based, and mixed models. The article interprets film titles not merely as naming units of cinematic works, but as linguistic phenomena that reflect the content, genre, narrative setting, and audience-oriented

communicative impact of a film. The analysis reveals that, in English filmonyms, place and time components more often function as concise semantic signals, whereas Uzbek filmonyms more strongly foreground character imagery, social environment, and national-cultural representations.

Keywords: filmonym, film title, semantic-thematic foundation, character, place, time, mixed model, comparative analysis, English filmonyms, Uzbek filmonyms.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda film nomlari, ya'ni filmonimlar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda. Filmonim kino asarini nomlash bilan birga, uning mazmuni, asosiy g'oyasi, voqea muhiti, qahramonlar tizimi va tomoshabinga ta'sirini ham o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli film nomi nafaqat tashqi belgi, balki film haqidagi dastlabki axborotni beruvchi muhim lisoniy birlikdir. Mazmuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ingliz va o'zbek kino nomlari san'at asari nomi sifatida bo'lishi bilan birgalikda madaniy, pragmatik va kommunikativ axborot tashuvchi birlik sifatida ham o'rganishni talab etmoqda. Film nomi tomoshabinda film haqidagi ilk tasavvurni hosil qiladi, uning janri, voqea muhiti, asosiy qahramoni yoki mazmuniy yo'nalishiga ishora qiladi. Shu jihatdan filmonimlarning mazmuniy-tematik asoslarini o'rganish tilshunoslik, onomastika, tarjimashunoslik va kino diskursi uchun muhim ahamiyatga ega.

Ingliz va o'zbek filmonimlarida qahramon/personaj, joy/makon, vaqt va aralash komponentlar turlicha namoyon bo'lishi ilmiy muammo sifatida belgilanadi. Ayrim film nomlarida bosh qahramon asosiy mazmuniy markaz bo'lsa, ayrimlarida joy yoki vaqt komponenti ustunlik qiladi. Ba'zi nomlarda esa bir nechta semantik komponent birgalikda kelib, murakkab mazmuniy tuzilma hosil qiladi. Ushbu holat ingliz va o'zbek filmonimlarini qiyosiy o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek filmonimlarining mazmuniy-tematik asoslarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat bo'lib, ushbu maqsadga erishish uchun ingliz va o'zbek filmonimlarida qahramon/personaj komponentining ifodalanishini, joy/makon asosida shakllangan filmonimlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish, qahramon + joy, qahramon + vaqt, joy + vaqt va boshqa aralash modellarning ko'rinishlarini aniqlash hamda ingliz va o'zbek film nomlari o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni ochib berish ahamiyatli hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Filmonimlarni o'rganish sarlavha, atoqli ot, onomastik birlik, kino diskursi va tarjima masalalari bilan bog'liq. Sarlavhalar matn yoki kino asari haqida dastlabki tasavvur hosil qiladi. Šidiškýtė va Tamulaitienė ta'kidlaganidek, film nomlari tomoshabinga film haqida ma'lumot beradi, uning mazmunini tanishtiradi va qiziqish uyg'otadi [6; 71–77-b.]. Demak, filmonimlar nominativ, informativ va pragmatik vazifalarni bajaradi. Babenko, Vasilyev va Kazarin badiiy matn sarlavhalarini inson, vaqt, makon, voqea va predmet kabi semantik markazlar asosida tasniflash mumkinligini ko'rsatadi [1; 159–182-b.]. Ushbu yondashuv filmonimlarni tahlil qilishda ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki film nomlarida ham ko'pincha qahramon, joy, vaqt yoki ularning aralash shakllari asosiy mazmuniy markaz sifatida keladi. Yu. N. Podymova film nomlarini struktur-semantik va funksional-pragmatik jihatdan o'rganishda ularning mazmuniy tuzilishiga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotchi filmonimlarni obyektini bildiruvchi, voqea joyini bildiruvchi, voqea vaqtini bildiruvchi hamda bir necha semantik komponentni o'z ichiga olgan nomlar sifatida guruhlash mumkinligini ko'rsatadi [5]. Ushbu tasnif mazkur maqolada ingliz va o'zbek filmonimlarini qiyosiy o'rganish uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. S. S. Chorna ingliz tilidagi filmonimlarning semantik va struktur xususiyatlarini o'rganar ekan, film nomlari tomoshabinni jalb qilish, film mazmuni haqida dastlabki tasavvur berish va muayyan assotsiatsiyalar uyg'otish vazifasini bajarishini ta'kidlaydi [2; 92–95-b.]. Bu fikr filmonimlarni faqat nomlash birligi sifatida emas, balki kommunikativ va pragmatik birlik sifatida talqin qilishga imkon beradi.

C. Nord sarlavhalar tarjimasida ularning farqlash, mazmunni ko'rsatish, auditoriyaga ta'sir qilish va emotsional vazifalarini hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi [4; 261–284-b.]. Bu qarash filmonimlar uchun ham muhim, chunki film nomi tomoshabin bilan kino asari o'rtasidagi ilk aloqa vositasi hisoblanadi. P. Newmark esa sarlavhalarni tavsifiy va ishoraviy turlarga ajratadi. Tavsifiy sarlavhalar mavzuni bevosita ko'rsatsa, ishoraviy sarlavhalar ramziy yoki obrazli ma'no beradi [3]. Bu yondashuv filmonimlarda qahramon, joy va vaqt komponentlarining qanday semantik vazifa bajarishini aniqlashda muhimdir.

Mavzuga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, filmonimlarning tarjima, funksiya va struktur-semantik jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, ingliz va o'zbek filmonimlarini aynan qahramon, joy, vaqt hamda aralash modellar asosida qiyosiy tahlil qilish hali yetarlicha keng yoritilmagan. Ushbu ilmiy maqolada mazkur jihat asosiy tadqiqot yo'nalishini belgilaydi. Shuningdek, tadqiqot qiyosiy-struktur va semantik tahlil asosida olib borildi. Tadqiqot materiali sifatida 30 ta inglizcha va 30 ta o'zbekcha filmonim tanlandi. Film nomlarini tanlashda ularning mashhurliqi, tahlil uchun qulayligi va qahramon, joy, vaqt yoki aralash semantik modelni ifodalashi hisobga olindi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tasniflash metodi;
- qiyosiy tahlil metodi;
- struktur-semantik tahlil metodi.

Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Ingliz va o'zbek filmonimlari alohida tanlab olindi.
2. Har bir filmonimning asosiy mazmuniy markazi aniqlandi.
3. Film nomlari qahramon/personaj, joy/makon, vaqt va aralash model guruhlariga ajratildi.
4. Har bir guruh bo'yicha ingliz va o'zbek filmonimlari qiyoslandi.
5. Natijalar jadval asosida umumlashtirildi va ilmiy izohlandi.

Tahlilda quyidagi asosiy guruhlar ajratildi:

1. Qahramon/personaj asosidagi filmonimlar – film nomida bosh qahramon, personaj, inson obrazi yoki ijtimoiy rol asosiy markaz bo'ladi. Masalan, *Logan*, *Sherlock Holmes*, *Shum bola*, *Abdullajon*.
2. Joy/makon asosidagi filmonimlar – film nomida voqea sodir bo'ladigan joy, shahar, mamlakat yoki madaniy makon asosiy markaz bo'ladi. Masalan, *Midnight in Paris*, *Toshkent – non shahri*.
3. Vaqt asosidagi filmonimlar – film nomida vaqt, davr, fasl, yosh, kun qismi yoki voqealarning davomiyligi asosiy belgi sifatida keladi. Masalan, *Before Midnight*, *The Edge of Seventeen*.
4. Aralash modeldagi filmonimlar – film nomida ikki yoki undan ortiq mazmuniy komponent birga keladi. Bunga qahramon + joy, qahramon + vaqt, joy + vaqt, qahramon + joy + vaqt kabi modellar kiradi.

Natijalar

Tadqiqotda 60 ta filmonim tahlil qilindi. Ularning 30 tasi inglizcha, 30 tasi o'zbekcha film nomlaridan iborat bo'ldi. Tahlil natijasida filmonimlar quyidagicha guruhlandi:

Mazmuniy-tematik guruh	Ingliz filmonimlari	O'zbek filmonimlari
Qahramon/personaj asosidagi nomlar	9	12
Joy/makon asosidagi nomlar	7	6
Vaqt asosidagi nomlar	5	3
Aralash modeldagi nomlar	9	9
Jami	30	30

1. Qahramon/personaj asosidagi filmonimlar

Qahramon asosidagi filmonimlarda film nomi bevosita bosh personaj yoki muhim inson obrazi bilan bog'liq bo'ladi. Ingliz tilida bunga *Logan*, *Sherlock Holmes*, *Forrest Gump*, *Joker*, *King Richard*, *John Wick*, *Matilda*, *Lucy*, *Oppenheimer* kabi nomlarni misol qilish mumkin.

O'zbek filmonimlarida esa *Shum bola*, *Abdullajon*, *Temir xotin*, *Suyunchi*, *O'gay ona*, *Kelinlar qo'zg'oloni*, *Super kelinchak*, *Pismiq kuyov*, *Katta oyi*, *Masxaraboz*, *Dilbarim*, *Yolg'izginam* kabi nomlar qahramon yoki inson obrazi asosida shakllangan. Bu turdagi nomlarda qahramon filmning mazmuniy markaziga aylanadi. Masalan, *Logan* nomi bosh qahramon shaxsini bevosita ko'rsatsa, *Shum bola* nomi o'zbek madaniyatida sho'x, chaqqon va xalqona obrazni ifodalaydi. Demak, ingliz filmonimlarida qahramon nomi ko'proq individual shaxsni bildirsa, o'zbek filmonimlarida qahramon obrazi ko'pincha ijtimoiy rol, xarakter yoki xalqona tasavvur bilan bog'lanadi.

2. Joy/makon asosidagi filmonimlar

Joy asosidagi filmonimlarda voqea sodir bo'ladigan makon nomning asosiy semantik markazi bo'ladi. Ingliz tilida *Dunkirk*, *Chernobyl*, *Midnight in Paris*, *2 Days in New York*, *In the Heart of the Sea*, *Notting Hill*, *Manchester by the Sea* kabi nomlar joy komponentiga asoslangan.

O'zbek filmonimlarida esa *Toshkent – non shahri*, *Mahallada duv-duv gap*, *Chinor tagidagi duel*, *Otamdan qolgan dalalar*, *Osmondagi bolalar*, *Qor qo'ynida lola* kabi nomlarda joy yoki makon muhim rol o'ynaydi. Bu guruhdagi nomlar faqat geografik joyni ko'rsatmaydi. Ular madaniy va assotsiativ ma'noni ham bildiradi. Masalan, *Midnight in Paris* nomida *Paris* shahri romantika, san'at va tarixiy muhit bilan bog'liq tasavvur uyg'otadi. *Toshkent – non shahri* nomida esa *Toshkent* shahri mehmondo'stlik, rizq-ro'z va xalqona qadriyatlar ramzi sifatida talqin qilinadi.

3. Vaqt asosidagi filmonimlar

Vaqt asosidagi filmonimlarda nom film voqealarining davri, davomiyligi, yosh bosqichi yoki muayyan vaqt nuqtasiga ishora qiladi. Ingliz tilida *Before Midnight*, *After*, *The Edge of Seventeen*, *In Time*, *One Day* kabi filmonimlar vaqt komponentiga asoslangan.

O'zbek filmonimlari orasida vaqt komponenti nisbatan kamroq uchraydi. Masalan, *Salom*, *Bahor!*, *Bahorni quvib*, *Alvido*, *ko'klam yoz*, *Yettinchi jin* kabi nomlarda fasl va vaqt obrazi muhim semantik markaz sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz filmonimlarida vaqt ko'pincha voqea chegarasi, hayot bosqichi yoki dramatik vaziyatni ko'rsatadi. Masalan, *Before Midnight* nomi voqea yarim tungacha bo'lgan muhim vaqt oralig'ida kechishini anglatadi. O'zbek filmonimlarida esa vaqt ko'proq fasl, tuyg'u va poetik obraz bilan bog'liq bo'ladi.

4. Aralash modeldagi filmonimlar

Aralash modeldagi filmonimlarda ikki yoki undan ortiq komponent birga keladi. Bunday nomlar mazmuniy jihatdan murakkabroq bo'lib, film haqida kengroq tasavvur beradi va aralash modellar quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

Aralash model turi	Inglizcha misollar	O'zbekcha misollar
Qahramon + joy	<i>Harry Potter and the Chamber of Secrets</i> , <i>Alice in Wonderland</i>	<i>Chinor tagidagi duel</i> , <i>Osmondagi bolalar</i>
Qahramon + vaqt	<i>The Curious Case of Benjamin Button</i> , <i>Young Sherlock Holmes</i>	<i>Yolg'izginam</i> , <i>Salom</i> , <i>Bahor!</i>
Joy + vaqt	<i>Midnight in Paris</i> , <i>2 Days in New York</i>	<i>Alvido</i> , <i>ko'klam yoz</i> , <i>Bahorni quvib</i> , <i>Qor qo'ynida lola</i>
Ramziy aralash model	<i>The Fault in Our Stars</i> , <i>Eternal Sunshine of the Spotless Mind</i>	<i>Qor qo'ynida lola</i> , <i>Qalb ko'zi</i>

Aralash modeldagi nomlarda filmning mazmuni birgina komponent orqali emas, balki bir necha semantik belgi

orqali ochiladi. Masalan, *Midnight in Paris* nomida vaqt va joy birga kelgan. "Midnight" vaqtini, "Paris" esa joyini bildiradi. Natijada nom romantik, sirli va madaniy kayfiyatni yuzaga chiqaradi. *Qor qo'ynida lola* nomida esa makon va predmet/ramziy obraz birgalikda poetik ma'no hosil qiladi.

Muhokama

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek filmonimlari mazmuniy-tematik jihatdan umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning ifodalanishida ayrim farqlar mavjud. Eng avvalo, o'zbek filmonimlarida qahramon/personaj asosidagi nomlar nisbatan ko'proq uchraydi. Bu holat o'zbek kino nomlarida inson obrazi, ijtimoiy rol, oilaviy munosabat va xalqona xarakter muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. *Shum bola, O'gay ona, Pismani kuyov, Katta oyi, Temir xotin* kabi nomlar nafaqat personajni, balki muayyan ijtimoiy-madaniy obrazni ham ifodalaydi. Shuningdek, ingliz filmonimlarida joy va vaqt komponentlari ancha ixcham va informativ shaklda keladi. *Midnight in Paris, 2 Days in New York, Before Midnight, Manchester by the Sea* kabi nomlarda joy va vaqt film mazmunini qisqa, lekin ta'sirchan tarzda belgilaydi. Bu ingliz film nomlarida sarlavhaning marketing va janrga ishora qilish funksiyasi kuchli ekanligini ham ko'rsatadi. Bundan tashqari, navbatdagi tahlilga ko'ra, o'zbek filmonimlarida joy komponenti ko'pincha milliy-madaniy ma'no bilan bog'lanadi. Masalan, *Mahallada duv-duv gap* nomida "mahalla" faqat yashash joyi emas, balki o'zbek jamiyatiga xos ijtimoiy muhit, jamoaviy munosabat va xalqona yumor belgisi sifatida keladi. *Toshkent – non shahri* nomida esa shahar nomi madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi.

Aralash modellar har ikki tilda ham faol qo'llanadi. Bunday nomlar film haqida bir vaqtning o'zida bir necha ma'lumot beradi. Masalan, *Midnight in Paris* – vaqt + joy modeliga, *Kelinlar qo'zg'oloni* – qahramon/personaj guruhi + voqea modeliga, *Qor qo'ynida lola* esa makon + ramziy obraz modeliga kiradi. Nordning fikricha, sarlavha tarjimasida uning farqlash, mazmunni ko'rsatish, auditoriyaga ta'sir qilish va emotsional vazifalari hisobga olinishi kerak [4]. Shu nuqtayi nazardan filmonimlarning mazmuniy-tematik markazini aniqlash ularni tarjima qilishda ham muhimdir. Masalan, qahramon nomi asosidagi filmonimlar ko'pincha transliteratsiya yoki izohli tarjimani talab qiladi. Joy nomlari esa ba'zan bevosita saqlanadi, ba'zan madaniy izoh bilan beriladi. Vaqt asosidagi nomlar esa ko'pincha to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinishi mumkin. Newmark sarlavhalarni tavsifiy va ishoraviy turlarga ajratadi. Tavsifiy sarlavhalar mavzuni bevosita ko'rsatsa, ishoraviy sarlavhalar ramziy yoki obrazli ma'no beradi [4]. Bu tasnif filmonimlar uchun ham muhim. Masalan, *2 Days in New York* tavsifiy xarakterga ega, chunki u vaqt va joyini bevosita ko'rsatadi. *Qalb ko'zi* esa ishoraviy nom bo'lib, unda ko'z komponenti ma'naviy idrok va ichki sezgi ramzi sifatida keladi. Šidiškytė va Tamulaitienėning tadqiqotida film nomlari tarjimasida *literal translation* va *transcreation* kabi usullar muhim o'rin tutishi ko'rsatiladi [6]. Bu fikr ingliz va o'zbek filmonimlari uchun ham ahamiyatli. Chunki ayrim nomlar to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinsa, mazmuni saqlanadi, aksincha, ayrim nomlar esa madaniy moslashtirishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek filmonimlarining mazmuniy-tematik asoslari qahramon/personaj, joy/makon, vaqt va aralash modellar orqali shakllanadi. 30 ta inglizcha va 30 ta o'zbekcha filmonim asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek filmonimlarida qahramon va ijtimoiy-madaniy muhitga asoslangan nomlar ko'proq uchraydi. Ingliz filmonimlarida esa joy, vaqt va aralash modellar ixcham, informativ va pragmatik jihatdan faol qo'llanadi. Filmonimlarning mazmuniy-tematik markazini aniqlash ularning lingvistik tabiatini tushunish, qiyosiy tahlil qilish va tarjima jarayonida to'g'ri yechim tanlash uchun muhimdir. Ayniqsa, qahramon, joy va vaqt komponentlari film nomida faqat ma'lumot beruvchi birlik emas, balki madaniy, estetik va pragmatik vazifa bajaruvchi semantik markaz sifatida namoyon bo'ladi.

Kelgusida ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotni kengaytirib, 100 yoki undan ortiq ingliz va o'zbek filmonimlarini qamrab olish, shuningdek, voqea va predmet asosidagi filmonimlarni ham alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бабенко Л. Г., Казарин Ю. В. *Лингвистический анализ художественного текста. Теория и практика*. – М.: ФЛИНТА, 2004.
2. Чорна С. С. Особливості англomовних фільмонімів: семантичні та структурні аспекти // *Напрямок 1. Українська мова та література*. – С. 92.
3. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – New York: Prentice Hall, 1988. – 312 p.
4. Nord C. Text-Functions in Translation: Titles and Headings as a Case in Point // *Target. International Journal of Translation Studies*. – 1995. – Vol. 7, № 2. – P. 261–284.
5. Подымова Ю. Н. *Названия фильмов в структурно-семантическом и функционально-прагматическом аспектах*: дис. ... канд. филол. наук. – Майкоп: Адыгейский государственный университет, 2006.
6. Šidiškytė D., Tamulaitienė D. The Contrastive Analysis of the Translation of English Film Titles into Lithuanian and Russian // *Studies About Languages*. – 2013. – Vol. 22. – P. 71–77.